

BOLA TA'LIMIDA OILANING O'RNI VA AHAMIYATI

Visola Tursunova

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Bilamizki, bugungi kunda maktab ta'limiga katta e'tibor qaratilib, Davlat tomonidan barcha zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Ammo bir savol tug'ilishi tabiiy, maktab ta'limida o'quvchilar ongiga ta'lim-tarbiyalarni singdirishda, yetarli ko'nikmalarni o'rgatishda, ularning bilim saviyasini shakllantirishda faqat ustoz-murabbiylar, maktab ma'muriyati javobgarmi?! Ushbu maqolada ota-onalarning ta'lim jarayonidagi bevosita ishtiroki va o'rni, ta'lim jarayoni va o'qituvchilar haqida xalqimizdagi xato tushunchalar to'g'risida barafsil chet el ta'lim tajribalariga asoslangan holda turli masalalar atroflicha muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, maktab ta'limi, mas'uliyat, oilaviy qadriyalar, burch, dunyo mamlakatlari tajribasi va h.k.

Ma'lumki, bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda har bir davlat o'z yoshlari, kelajak avlodi bilim va tafakkurini yuksaltirish harakatida. Chunki kelajak ilmi va dunyo qarashi keng yoshlar qo'lida. O'zbekiston ham so'nggi yillar ichida maktab va maktabgacha ta'limda ko'pgina yutuqlarga erishayotganligi dunyo olimlari e'tiborini tortmoda. Men ham pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan bir talaba sifatida ushbu mavzuga xos bo'lgan o'z fikrlarimni bildirib o'tmoqchiman.

Avvalo, ta'lim deganda har birimizning ko'z oldimizga dastlab maktab keladi. 98% insonning fikrlashicha, bolaning ham ta'limi, ham tarbiyasiga maktab javobgar. Ammo nega? Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi tarixini o'rganib ko'rsak, bu davlatlarda oila va ota-ona maktab bilan uzviy hamkorlikda harakat qiladi. Grigoriy Spiridonovich Petrov tomonidan yozilgan "Oq nilufarlar yurtida" kitobida bir qancha davlatlar misol sifatida keltirib o'tilgan. Masalan, bir necha yillardan buyon PISA xalqaro tadqiqotlarida birinchilikni egallab kelayotgan Finlandiyada o'qituvchilar qadri va hurmati yuqori. Har bir oilada bola maktabga chiqmasidan avval muallimni hurmat qilish kerakligi, uning

so'zlarini odob bilan tinglash lozimligi haqida o'rgatib boriladi. Ota-onalar ham o'z farzandlariga o'rnak sifatida maktabda o'tkaziladigan yig'inlar va majlislarda o'qituvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi. Finlandiyada o'qituvchi jamiyatdagi eng hurmatga sazovor shaxs sifatida ko'riladi. Bundan tashqari, ushbu mamlakatda bo'lajak ota-onalar hali farzandlari dunyoga kelmasidanoq bolaga qanday tarbiya berish, u maktab yoshiga yetganida qanday qo'llab-quvvatlash haqida seminar-treninglar tashkil qilinadi. Bu ham "oila+maktab" tamoili asosida ta'limni rivojlantirishga kata hissa qo'shadi. Shu o'rinda dunyo ta'lim tizimi reytinglarida yeakchi o'rinlarda bo'lib kelayotgan Singapur ta'lim tizimi haqida ham qisqacha to'xtalib o'tsak. Ushbu davlatda ta'lim jarayonlarida oilaning o'rni nihoyatda muhim. Har bir maktabda Parent support group (PSG) tashkil etilgan bo'lib, ushbu uyushma ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Singapurda ota-onalar farzandlarida tartib-intizom va tarbiyani shakllantirishga asosiy mas'ul insonlar sifatida qaraladi. Chunki tarbiya va axloq mukammal bo'lsa, ta'lim nuqsonsiz bo'ladi. Davlat ota-onalarga kitobxonlik targ'ibotida asosiy o'rinda bo'lgan bepul kutubxonalarni, rivojlantiruvchi o'yinchoqlarni taqdim etishi ham e'tiborga molik jihatlardan biridir. Qisqa qilib aytganda, Singapur ta'lim tizimi rivojlanishida oilaning ahamiyati sezilarli darajada.

Ushbu mavzuda turli mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqdim va ushbu xulosaga keldimki, ta'limda nafaqat pedagoglar, balki oila va ota-onaning ahamiyati ham ancha yuqori. Ta'limda qachon natija bo'ladi? Qachonki oila va maktab uzviy hamkorlik asosida ish olib borsa. Tarbiyasiz ta'lim 0 ga tengdir. Darsda tinchlik saqlab, muallimni diqqat va e'tibor bilan tinglagan o'quvchi barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtiradi. Ammo ustozga behurmatlik bilan muomala qilgan, uni e'tiborsiz tinglagan o'quvchidan yaxshi natija kutish befoyda. Barchaning yonida o'qituvchining qadr-qiymatini tushirib, oyoqosti qilgan, e'tiborsizlik bilan dasga bepisand qaragan o'quvchini kim ham o'qitgisi kelardi? Tarbiyali, ko'zlari ilm ishtiyoqida yonib turgan bolalar har bir muallimning faxridir.

Afsuski, bugungi kunda bir qancha o'zbek oilalarida kuzatilayotgan noxush holatlardan biri, bu farzandiga qo'pol gapirgan ustozning yoniga borib uni ko'pcilik oldida izza qilish. Ota-ona bolani nazorat qilib dakki bermaganidan keyin muallimlar qattiq gapirishga majbur bo'lishmoqda. Unutmaylikki, bugun biz ustozni izza qilsak, ertaga farzandimiz el-

u yurt ichiuda bizning boshimizni egishi turgan gap. Yaratilayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga befarq bo'lmasdan farzand tarbiyasiga va ta'limiga oz bo'lsa-da vaqt ajratish jamiyatimizning eng katta vazifalaridan biridir!

Xulosa

Bugungi texnologiyalar asrida ta'lim jarayonida yangi bosqichlarga chiqish, kerakli bilim va ko'nikmalarni o'rgatish, yuqori natijalarga erishish jarayonida nafaqat o'quv kunlari bolaning 5-8 soatinigina band qila oladigan maktab ma'muriyati va ustoz-pedagoglardan tashqari, o'quvchilarning kun davomidagi vaqtining aksar qismiga mas'ul ota-onalarning o'rni beqiyos. Ularning qo'llab-quvvatlovchi, hamkorlikda faoliyat olib borish, shu yaxlit tamoyilda ish olib borish yurt kelajagi hisoblanadigan yoshlarning kelajagi yorqin bo'lishi uchun zarur. Zero, Abdulla Avloniy aytganidek, tarbiya yo najot, yo mamotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Petrov, G. S. "Oq nilufarlar yurtida" (Finlandiya ta'lim tizimi haqida esse).
2. Sahlberg, P. (2011). Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.
3. Hasanboyev, J., & o'g'li, N. J. (2021). Pedagogik mahorat: oila va maktab hamkorligi. Toshkent: Navro'z nashriyoti.
4. Qodirov, M. (2019). Jahon ta'lim tizimlari: Singapur modeli. Pedagogika jurnali, 4(55), 28-32.
5. To'rayev, A. (2018). Bolalar psixologiyasi va oilaviy tarbiya. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti